

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 02 | pp. 349-355 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI BARQARORLIGINI REYTING TIZIMI ASOSIDA BAHOLASH ISTIQBOLLARI



Nabijon Xolov

TDIU mustaqil izlanuvchisi PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholash masalalari ko'rib chiqilgan. Xususan, xalqaro tajribada keng qo'llaniladigan «CAMEL» reyting tizimi asosida tijorat banklarining kapital yetarliligi, aktivlar sifati, boshqaruv samaradorligi, daromadlilik hamda likvidlilik darajasi tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida AT «Agrobank» misolida bank kapitalining yetarlilik ko'rsatkichlari, aktivlar sifati va umumiy risk miqdori baholangan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, «CAMEL» reyting tizimi, kapital yetarliligi, likvidlilik, aktivlar sifati, risk menejmenti.

Abstract: This article discusses the issues of assessing the financial stability of commercial banks in the Republic of Uzbekistan. In particular, the capital adequacy, asset quality, management efficiency, profitability, and liquidity levels of commercial banks are analyzed based on the CAMEL rating system, which is widely used in international practice. As part of the study, using the example of Agrobank, the bank's capital adequacy, asset quality, and overall risk were assessed.

Keywords: commercial banks, financial stability, Camel rating system, capital adequacy, liquidity, asset quality, risk management.

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы оценки финансовой устойчивости коммерческих банков Республики Узбекистан. В частности, на основе рейтинговой системы CAMEL, широко применяемой в международной практике, анализируются достаточность капитала, качество активов, эффективность управления, рентабельность и уровень ликвидности коммерческих банков. В рамках исследования на примере АТ «Агробанк» оценивались показатели достаточности капитала банка, качества активов и величины общего риска.

Ключевые слова: коммерческие банки, финансовая устойчивость, рейтинговая система Camel, достаточность капитала, ликвидность, качество активов, управление рисками.

Kirish

Mamlakatimiz moliyaviy tizimining barqarorligi va samaradorligini oshirishda tijorat banklarining moliyaviy holatini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bank sektorining ishonchliligi va likvidlilik darajasini baholashda xalqaro tajribada keng qo'llaniladigan «CAMEL» reyting tizimi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Ushbu tizim tijorat banklarining kapital yetarliligi, aktivlar sifati, boshqaruv samaradorligi,

daromadlilik hamda likvidlilik darajalarini har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi «CAMEL» reyting tizimi asosida baholanadi.

Xususan, AT «Agrobank» misolida bank kapitalining yetarlilik darajasi, aktivlarning sifati, umumiy risk miqdori va likvidlilik darajasi o'rganiladi. Mazkur tahlil bank tizimining hozirgi holatini chuqur anglashga va rivojlantirish bo'yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Natijalar esa tijorat banklarining barqarorligini ta'minlash bo'yicha strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyot sharhi

James Barth 2009-yilda nashr etilgan *"The Rise and Fall of the US Mortgage and Credit Markets"* kitobida bank tizimining barqarorligi uchun kapital yetarliligi va aktivlar sifati muhim omillar ekanligini ta'kidlaydi. 2013-yilda u *"Guardians of Finance: Making Regulators Work for Us"* kitobida tijorat banklarining aktiv sifati pasaysa, bu ularning likvidligini yo'qotishiga va moliyaviy beqarorlikka olib kelishiga sabab bo'lishi mumkinligini qayd etgan.

Levine bank sektori va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni 1997-yilda "Financial Development and Economic Growth: Views and Agenda" maqolasida muhokama qilgan. 2005-yilda u "Finance and Growth: Theory and Evidence" asarida bank tizimining boshqaruv samaradorligi kapital yetarliligidan ham muhimroq omil bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan. 2018-yilda esa "Banking Regulation and Supervision: What Works Best?" maqolasida moliyaviy regulatsiyalarni kuchaytirish orqali banklarning barqarorligini oshirish mumkinligini qayd etgan.

Mishkin 1996-yilda *"Understanding Financial Crises: A Developing Country Perspective"* kitobida moliyaviy inqirozlarning sabablari va tijorat banklarining roli haqida so'z yuritgan. 2007-yilda *"The Economics of Money, Banking and Financial Markets"* kitobining yangi nashrida banklarning kapital yetarliligi va likvidlilik muammolarini muhokama qilgan. 2020-yilda esa *"Monetary Policy Strategy"* asarida davlat tomonidan banklarga ko'rsatiladigan moliyaviy yordamning uzoq muddatli salbiy oqibatlari haqida yozgan.

Stiglitz 1993-yilda *"Financial Markets and Development"* asarida bank tizimining iqtisodiy o'sishdagi rolini muhokama qilgan. 2010-yilda *"Freefall: America, Free Markets, and the Sinking of the World Economy"* kitobida moliyaviy bozorlarning beqarorligi qanday qilib iqtisodiy inqirozlarga sabab bo'lishini tahlil qilgan. 2023-yilda esa *"People, Power, and Profits"* kitobida bank sektorining tartibga solinishi barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun zarur ekanligini ta'kidlagan.

Tadqiqot natijalari

Bank tizimi barqarorlik darajasini baholashda Xalqaro bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi va uning tavsiyalari katta ahamiyat kasb etadi. Shunday talablarning eng so'nggilaridan biri, bu Bazel qo'mitasining tijorat banklari likvidlilikini qoplash va sof barqaror moliyalashtirish me'yorlaridir. Navbatdagi jadval ma'lumotlarida, mamlakatimiz ayrim tijorat banklari ushbu me'yorni bajarish holatini ko'rib chiqamiz.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi tijorat

**banklari likvidlilikni qoplash va sof barqaror
moliyalashtirish me'yorlarini bajarish holat [1]**

№	Banklar	2023 yil 1 yanvar		2024 yil 1 yanvar	
		likvid likni qoplash me'yori (min =0,80)	sof barqaror moliyalashtirish me'yori	likvid likni qoplash me'yori (min =0,90)	sof barqaror moliyalashtirish me'yori
1.	Asaka bank	1,001	0,697	1,307	0,856
2.	O'zsanoatqurilish bank	2,259	1,200	1,829	1,035
3.	Xalq bank	1,262	1,207	1,067	1,202
4.	Ipotekabank	1,320	0,772	1,246	0,985
5.	Mikrokreditbank	1,784	1,074	1,618	0,914
6.	Ipak yo'li bank	2,066	1,060	2,161	1,182
7.	Turon bank	1,279	0,756	1,952	0,989

Albatta, ushbu ko'rsatkichlarni doimiy nazorat qilib borish zarur hollarda kechiktirib bo'lmas chora-tadbirlar ishlab chiqish, tijorat banklarida yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan turli muammolarni oldini olish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan «CAMEL xalqaro reyting tizimi bo'yicha tijorat banklarining moliyaviy holatini baholash va reytingini aniqlash mezonlari» asosida tijorat banklari moliyaviy holatiga baho berib boradi. Tijorat banklari moliyaviy holatining umumiy reytingi «Tijorat bankida inspeksiya o'tkazish» ishchi guruhi rahbari tomonidan belgilanadi.

«CAMEL» reyting tizimida kapital yetarliligi, aktivlar sifati, menejment yoki boshqaruv, bank daromad, xarajat va rentabelligi hamda likvidlilikni baholashni anglatadi. Baholash mezoni 1 balldan 5 ballgacha bo'lib, 1 mustahkam bo'lsa, 5 esa o'z navbatida qoniqarsiz bo'lganligini anglatadi. Bankning umumiy reytingi barcha tegishli komponentlarini reytinglash mezonlari asosida baholanadi, umumlashtiriladi va komponentlar soniga bo'linadi. Unga ko'ra, umumiy ballar:

- 1 va 1,4 oralig'ida bo'lsa – bank reytingi 1,
- 1,5 va 2,4 oralig'ida bo'lsa – bank reytingi 2,
- 2,5 va 3,4 oralig'ida bo'lsa – bank reytingi 3,
- 3,5 va 4,4 oralig'ida bo'lsa – bank reytingi 4,
- 4,5 va 5 oralig'ida bo'lsa – bank reytingi 5 bilan baholanishi lozim.

Biz quyida respublikamizning yirik tijorat banklaridan biri bo'lgan AT «Agrobank» misolida tijorat banklari faoliyatining barqarorligini «CAMEL» reyting tizimi asosida baholash amaliyotini ko'rib chiqamiz.

«CAMEL» reyting tizimining birinchi komponenti bu kapital yetarliligi hisoblanadi. Tijorat banklari kapitali yetarliligi ko'rsatkichi eng asosiy va birinchi

navbatda turuvchi indikator hisoblanadi. Sababi, ushbu me'yor orqali banklar boshqa ko'rsatkichlari minimal talablari ham ishlab chiqiladi.

2-jadval

AT «Agrobank» da umumiy kapital va birinchi darajali kapitalning yetarlilik darajasi[2]

Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Bankning umumiy kapitali, mlrd. so'm	236,7	297,8	371,4	411,1	469,7	398,7	1 272,3
Bankning birinchi darajali kapitali, mlrd. so'm	217,3	262,6	345,4	382,6	414,9	387,0	1 266,1
Bank aktivlarining riskka tortilgan summasi, mlrd. so'm	1388,9	1788,3	2265,8	2573,5	3312,5	4087,4	4527,7
Umumiy kapitalning yetarlilik darajasi, % (1:3 x 100%)	13,3	13,6	13,7	13,3	12,8	9,8	28,1
Birinchi darajali kapitalning yetarlilik darajasi, % (2:3 x 100%)	15,4	14,7	15,2	14,9	12,5	9,5	27,9

2-jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, Agrobankda 2018-2024 yillarda umumiy kapital va birinchi darajali kapitalning yetarlilik darajalari «CAMEL» reyting tizimida belgilangan me'yoriy darajasidan yuqoridir.

2023 yilda me'yor darajasidan past bo'lganligi uning barqarorligini ta'minlashda salbiy holat hisoblanadi. Shu bois, 2024 yilda bank kapitallashuvi natijasida, ushbu ko'rsatkichlar ancha yaxshilangan va barqarorlik nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Chunki, kapitalning yetarlilik ko'rsatkichlari tijorat banklarining to'lovga qobilligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shu sababli, Bazel qo'mitasi ham, xalqaro reyting agentliklari ham tijorat banklari faoliyatining barqarorligini baholashda kapitalning yetarlilik koeffitsientlarining tahliliga e'tibor qaratishadi.

Navbatda «CAMEL» reyting tizimining ikkinchi komponenti aktivlarning sifatini tahlil qilamiz.

Ma'lumki, «CAMEL» reyting tizimida aktivlarning sifatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkich bo'lib, umumiy risk miqdorining darajasi ko'rsatkichi hisoblanadi. Umumiy riskning miqdori darajasi ko'rsatkichi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\text{URMD} = [\text{URM} : (\text{K1} + \text{KYQZ})] \times 100\% \quad [1]$$

Bu yerda:

URMD – umumiy riskning miqdori darajasi;

URM – umumiy riskning miqdori;

K1 – birinchi darajali kapital;

KYQZ – kreditlar bo'yicha yo'qotishlarni qoplash zaxirasi.

O'z navbatida, umumiy riskning miqdori quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$URM = SA \times 0,2 + ShA \times 0,5 + UA \times 1,0 \quad [2]$$

Bu yerda:

URM – umumiy riskning miqdori;

SA – substandart aktivlar;

ShA – shubhali aktivlar;

UA – umidsiz aktivlar.


Biz quyida AT «Agrobank»da umumiy risk miqdorini ko'rib chiqamiz.

3-jadval

AT «Agrobank»da umumiy riskning miqdori [3], mln. so'm

Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Substandart aktivlar	16200	14462	9437	3255	1009	24444	41651
Shubhali aktivlar	9357	4359	1970	1118	757	1491	7679
Umidsiz aktivlar	5699	4630	986	1476	300	3644	145399
Umumiy riskning miqdori	13617	9701	3858	2686	880	9278	157568

3-jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, AT Agrobankda umumiy riskning miqdori 2018-2022-yillarda pasayish tendentsiyasiga ega bo'lgan va uning xajmi 6,4 marta kamayganini ko'rishimiz mumkin. Lekin, 2023 va 2024-yillarda umumiy riskning miqdori oshish tendentsiyasi kuzatilgan. Bu esa bizning fikrimizcha, banklar kapitallashuvi natijasida, bankda mavjud muammoli (umidsiz) aktivlarni balansdan chiqarish maqsadida risklar miqdori oshgani kuzatiladi.



1-rasm. AT «Agrobank» da umumiy risk miqdorining darajasi,[4] foizda

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2018-2024-yillarda Agrobank umumiy risk miqdori darajasining pasayish tendentsiyasi kuzatilgan. Ammo, tahlil qilingan davr boshida ushbu ko'rsatkich darajasining juda yuqori bo'lganligi salbiy holat hisoblanadi. 2024-yilda ham yuqoridagi fikrlarimiz o'z isbotini topgani ma'lum bo'lmoqda.

«CAMEL» reyting tizimining keyingi elementi bo'lib, daromadlilik hisoblanadi.

«CAMEL» reyting tizimida, bank daromadlilikini miqdoriy baholashda «Daromadlilik koeffitsienti» dan (Dk) foydalaniladi.


Daromadlilik koeffitsienti (Dk) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Dk = SF / BAO'S \quad [3]$$

Bu yerda:

SF – tijorat bankining sof foydasi;

BAO'S – bank aktivlarining o'rtacha summasi.



2-rasm. AT «Agrobank»da daromadlilik koeffitsientining darajasi, foizda [5]

2-rasm ma'lumotlari ko'rsatadiki, 2018-yilda Agrobankda daromadlilik koeffitsientining darajasi juda past bo'lgan. Buning ustiga, 2020-yilda ushbu koeffitsientning darajasi 2019-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Bu esa, Agrobank faoliyatining barqarorligini ta'minlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Lekin, 2021-yildan ushbu ko'rsatkich yana asta-sekin o'sish tendentsiyasiga ega bo'lganligi kuzatiladi. Bu esa, bank barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

«CAMEL» reyting tizimining navbatdagi elementi bo'lib, likvidlilik hisoblanadi. Mazkur tizimda tijorat bankining likvidlilikini baholashda bir nechta ko'rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi. Ammo, ushbu ko'rsatkichlarning chegaraviy mezonlari o'rnatilmagan va shu sababli, ularga ball berishda real vaziyatdan kelib chiqiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining likvidlilikini baholashda qo'llanilayotgan joriy likvidlilik koeffitsienti me'yoriy darajasini bazaviy ko'rsatkich sifatida olish mumkin.

Xulosa

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi mamlakat iqtisodiy tizimining mustahkamligi va rivojlanishi uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining moliyaviy holati xalqaro tajribada keng qo'llaniladigan «CAMEL» reyting tizimi asosida baholandi.

Tadqiqot doirasida AT «Agrobank» misolida kapital yetarliligi, aktivlar sifati, daromadlilik va likvidlilik kabi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar tahlil qilindi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, banklarning kapital yetarliligi va aktivlar sifati moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. 2023-yilda ayrim tijorat banklarining umumiy risk miqdori ortgani ularning moliyaviy mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Biroq, 2024-yilda kapital yetarliligi va likvidlilik

ko'rsatkichlarining yaxshilanishi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash borasida ijobiy tendensiyalar mavjudligini ko'rsatadi.

Shuningdek, maqolada xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, bank sektorining barqarorligini oshirish bo'yicha bir qator tavsiyalar ilgari surildi. Jumladan, bank kapitalining yetarliligini doimiy ravishda nazorat qilish, aktivlar sifatini yaxshilash hamda risklarni samarali boshqarish muhimligi ta'kidlandi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi uchun xalqaro standartlarga mos keladigan moliyaviy monitoring va boshqaruv mexanizmlarini joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Basel Committee on Banking Supervision. (2010). Basel III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems. Bank for International Settlements.
2. Barth, J. R., Caprio, G., & Levine, R. (2013). Guardians of Finance: Making Regulators Work for Us. MIT Press.
3. Mishkin, F. S. (2020). The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. Pearson.
4. Levine, R. (2018). Banking Regulation and Supervision: What Works Best? Journal of Financial Economic Policy, 10(2), 250-275.
5. Stiglitz, J. E. (2023). People, Power, and Profits: Progressive Capitalism for an Age of Discontent. W. W. Norton & Company.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. (2023). Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholash mezonlari va «CAMEL» reyting tizimi bo'yicha tavsiyalar. Toshkent.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

